XALQ DEPUTATLARI ANGREN SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 25-mart VII-26-30-10-148-K/26 Angren shahar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ – 387-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 387-sonli qaroriga muvofiq, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limining shahar hokimligi huzuridagi jamg‘armalar va mahalliy byudjet qo‘shimcha manbalari mablag‘larining bo‘sh turgan qismini belgilangan tartibda auksion orqali tijorat banklarida depozitga qo‘yish hamda shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan shahar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga kelishilganligi yuzasidan bildirilgan takliflarini inobatga olib, Xalq deputatlar Angren shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angren shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari J.Yuldashevning 2026-yil 6-fevraldagi 33125-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 387-sonli qarorining 4-bandiga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvardan boshlab shahar hokimligi huzuridagi jamg‘armalar va mahalliy byudjetlar qo‘shimcha manbalari

mablag‘larining bo‘sh turgan qismini belgilangan tartibda auksion orqali tijorat banklarida depozitga qo‘yish hisobiga qo‘shimcha daromad topishga qaratilgan mablag‘lar yuzasidan shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar 1-ilovaga asosan kelishilganligi inobatga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 387-sonli qarorining 8-bandiga asosan, 2026-yil 1-yanvardan boshlab shahar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblar 2-ilovaga asosan kelishilganligi inobatga olinsin.

4. Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan shahar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilayotgan shartnomalar O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash standartlarini aniqlash bo‘yicha eksprimental tadqiqotlar va xronologik ishlarning o‘rtacha yillik natijalariga asosan belgilangan ta’riflar miqdorida kelishilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Abrarov, shahar hokimining birinchi o‘rinbosari Y.Naraliyev, shahar hokimining o‘rinbosari A.Jurabayev zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **XOLMATOV MUROD ERKINOVICH**

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2026-yil 25-martdagi
VII-26-30-10-148-K/26 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 387-sonli qarorining ijrosi yuzasidan

MA’LUMOT

T/r	Byudjetlar nomi	Hisobot davri boshiga qoldiq	Tushum	Xarajat	Hisobot davri oxiriga qoldiq	Depozitga qo‘yishga taklif
1.	3050-“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi	3 171 245 637,87	162 412 248,67	0	3 333 657 886,54	2 500 000 000,00
2.	3051-“Ayollar daftari”ga kiritilgan ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi	4 018 998 802,50	162 412 248,76	0	4 181 411 051,26	3 000 000 000,00
3.	3080-Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik jamg‘armasi	790 322 069,79	207 731 886,09	0	998 053 955,88	500 000 000,00
	Jami	**7 980 566 510,16**	**532 556 383,52**	**0,00**	**8 513 122 893,68**	**6 000 000 000,00**

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2026-yil 25-martdagi
VII-26-30-10-148-K/26 -son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilarning to‘plash standartlarini aniqlash bo‘yicha eksprimental tadqiqotlar va xronologik ishlarning o‘rtacha yillik natijalari asosan belgilangan tariflar

№	Mayishiy chiqindilarni yigish inshoati	O‘lchov birligi	Tasdiqlangan ta’rif (som QQS siz) *	Tasdiqlangan ta’rif (so‘m QQS bilan) *
1	Ma’muriy va boshqa muassasalar (tashkilotlar, ofislar va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880
2	Mexmonxonalar , yotoqxonalar dam olish uylar va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880
3	Xususiy klinikalar	1 m^3	74 000	82 880
4	Xususiy, kasalxonalar , sanataroriyalar va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880
5	Xususiy teatrlar , kino teatrlar , kansert zallari , kutubxonalar, klublar va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880
6	Sartaroshxonalar	1 m^3	74 000	82 880
7	Xususiy stadionlar , sport maydonchalari va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880

8	Do'konlar, supermarketlar , qurilish materialari dokonlari, palatkalar va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880
9	Dorixonalar	1 m^3	74 000	82 880
10	Transport vositalari ,savdo rastaralari va boshqalardan savdo qilish	1 m^3	74 000	82 880
11	Xususiy sport, gimnastika va o‘yin zallari va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880
12	Ulgurji savdo bazalari ,oziq ovqat omborlari va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880
13	Ulgurji bazalari ,sanoat tovarlari omborlari va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880
14	Temir yo‘l stansiyalari va avtobus bekatlari aeraport va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880
15	Plyaj	1 m^3	74 000	82 880
16	Maishiy xizmatlar davlat xizmatlari	1 m^3	74 000	82 880
17	Kir yuvish, kimyoviy tozalash kiyim kechak va tikish ustaxonalari , poyavzal tamirlash ustaxonalari	1 m^3	74 000	82 880
18	Hamomlar , saunalar va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880
19	Maishiy texnika ,elektron jihozlar va boshqalar	1 m^3	74 000	82 880
20	Avtoturargohlar, avtomabil yuvish joylari avtomobilni ta'mirlash ustaxonalari va yoqilg'i quyish shoxobchalari	1 m^3	74 000	82 880